

ISSN 2181-5291

# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 3, 2022

[www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)



*The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency*

\*\*\*

*According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.*

\*\*\*

**Address:**

200117, Bukhara city,  
K.Murtazoyev street, 11  
Bukhara State University  
Editorial and publishing  
Department  
Phone: +998 (97) 798-33-75

**The journal is published 4  
times a year**

Website: [www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

*Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.*

\*\*\*

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

\*\*\*

**Tahririyat manzili:**

200117, Buxoro shahri,  
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy  
Buxoro davlat universiteti  
"Tahririy nashriyot" bo'limi  
Tel: +998 (97) 798-33-75

**Jurnal 1 yilda 4 marta  
chiqadi.**

Website:  
[www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

*Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.*

\*\*\*

*Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.*

\*\*\*

**Адрес:**

город Бухара 200117,  
улица М.Икбола, 11  
Бухарский государственный  
университет  
Редакционный отдел  
тел: +998 (97) 798-33-75

**Журнал выходит 4 раза в  
год.**

Website:  
[www.psixologiyabuxdu.uz](http://www.psixologiyabuxdu.uz)  
E-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)



# PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL \* НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

3-son 2022-yil. \* Выпуск 3. 2022 год.

## BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

**BAROTOV SH. R.**

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии

психологических наук

## TAHRIR HAU'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ

### КОЛЛЕГИЯ:

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SHOUMAROV G`B.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
MALI`X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KOROBAYNIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor  
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor  
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor  
JUMAYEV R.G`.

Siyosiy fanlari fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

NISHONOVA Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor

NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor  
BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor  
HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor  
RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor  
BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent  
ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

## MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., dotsent

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abzalova M.K. - filologiya fanlari doktori,  
professor

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## TEXNIK MUHARRIRLAR – TEX. РЕДАКТОРЫ:

Ostanov Sh.Sh., Shirinova M.Sh.,

Tilavov M.H.

## MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)





# PSYCHOLOGY

## SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 3: 2022

**EDITOR-IN-CHIEF:**  
**BAROTOV SH. R.**

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

**EDITORIAL BOARD:**

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,  
The rector of Bukhara State University

SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor  
UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor  
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KOROBAYNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor  
KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor  
SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor  
BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor  
KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor  
JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor  
OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical sciences,  
Professor

JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent  
NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor  
NAZAROV A.M.

PhD of Psychology

IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor  
BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor  
HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor  
MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor  
RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor  
BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent  
Zaripov G.T.

Candidate of technical sciences, Docent

**EDITORS:**

Usmanova M.N. – Candidate of  
Psychology, Docent

Mukhtorov E.M. – Candidate of  
Psychology, Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of  
Philosophy in Philological Sciences  
(PhD), Docent

Abzalova M.K. – Doctor of Philological,  
Professor

Sobirova D.A. PhD of Psychology

**TECHNICAL EDITORS:**

Ostanov Sh.Sh, Shirinova M.Sh.,  
Tilavov M.Kh.

**EXECUTIVE SECRETARY**

Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy  
in Pedagogical Sciences (PhD)





**Hakimova Nargiza Supxanovna,**  
*Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

## **KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY VA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari, o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali ularga jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam berish, egallagan bilimi, hayotiy ko'nikmasi, aql-idroki, imkoniyati, iqtidori jamiyat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishiga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy - huquqiy kompetensiya, shaxsiy fazilatlar, hayotiy ko'nikma, aql-idrok, ijtimoiy-psixologik omillar, ta'lim sifati, kompetentlik, allomalar merosi, hayotiy qadriyatlar, ijtimoiy-huquqiy me'yor.

### **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧЕНИКОВ МЛАДШИХ КЛАССОВ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы формирования социально-правовых компетенций учащихся младшего школьного возраста в процессе обучения, помогающих им найти своё место в обществе через развитие личностных качеств учащихся, приобретённых знаний, жизненных навыков, интеллекта, обсуждается социально-психологическое значение направления своей работоспособности на развитие общества.

**Ключевые слова:** социально-правовая компетентность, личностные качества, жизненные навыки, интеллект, социально-психологические факторы, качество образования, компетентность, научное наследие, жизненные ценности, социально-правовые нормы.

### **SOCIO-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF FORMATION OF SOCIO-LEGAL COMPETENCES IN JUNIOR GRADE PUPILS**

**Annotation:** In the article, the issues of formation of social and legal competences of students of junior school age in the process of education, helping them to find their place in society through the development of personal qualities of students, acquired knowledge, life skills, intelligence, the socio-psychological importance of directing one's ability to work for the development of society is discussed

**Keywords:** socio-legal competence, personal qualities, life skills, intelligence, socio-psychological factors, quality of education, competence, scholarly heritage, life values, socio-legal norm.

**Kirish.** Ma'lumki, yosh avlodning yetuk inson sifatida ulg'ayishi jamiyat rivojini ta'minlovchi omillardan hisoblanib, uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida, o'z o'rnini topishida, o'z-o'zini rivojlantirib borishida ham yetakchi o'rin tutadi.

Aynan, ta'lim-tarbiya jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish asosida ularning ijtimoiy faolligini ta'minlash quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim hisoblanadi. Ya'ni o'quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish orqali unga jamiyatda o'z o'rnini topishda yordam beradi hamda egallagan bilimi, hayotiy ko'nikmasi, aql-idroki, imkoniyati, iqtidori jamiyat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilishiga yo'naltiriladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy faolligi, ularda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki doimiy ravishda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchi yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish



pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

**Asosiy qism.** Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Har bir shaxsning hayoti bevosita jamiyatda, unda istiqomat qiladigan kishilar orasida, muomala va muloqot jarayonida kechadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi shaxslararo aloqalarning samarali kechishi bevosita shaxsning ijtimoiy munosabatlar mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy munosabatlar mazmuni esa o'z navbatida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning aniqlanganligi, jamiyat tomonidan qay darajada tan olinganligi hamda amaliy faoliyatda ularga rioya etilayotganligi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-huquqiy me'yorlar aynan shaxslararo munosabatlar negizi, unda aks etuvchi xususiyatlarga muvofiq shakllantiriladi. Garchi shunday bo'lsa-da, biroq hamisha ham ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati jamiyat a'zolari tomonidan birdek anglanmaydi. Kuzatishlarga ko'ra ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati ko'p hollarda huquqiy yo'nalish bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, aynan sud-huquq, soliq, bojxona yoki ichki ishlar tizimida faoliyat yuritayotgan shaxslar tomonidagina muayyan darajada anglanishi mumkin. Biroq O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillaridayoq fuqarolik jamiyatini barpo etish ijtimoiy maqsad etib belgilanganligi inobatga olinsa, ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, ularning mazmunidan barcha fuqarolar birdek xabardor bo'lishlari kerakligining dolzarbliyi yanada ortadi.

Shu bois fuqarolarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning mohiyati bilan tanishtirish, ular to'g'risidagi ma'lumotlarning izchil berib borilishiga erishish jamiyat miqyosida hal qilinishi shart bo'lgan vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifaning ijobiy hal qilinishida tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega subyektlar qatorida ta'lim muassasalari ham alohida o'rin tutadi.

Ta'lim muassasalari eng oddiy, shuningdek, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish, inson huquqlarini muhofaza qilish darajasida aks etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlardan o'quvchilarni xabardor qilish, ularning ahamiyati, rioya etish zaruriyatini anglatish imkoniyatiga ega. Mavjud imkoniyat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mazmuni bilan bosqichma-bosqich tanishtirib borilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ham tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirib borish imkoniyati mavjud. Bunda tarbiyalanuvchilarga beriladigan ma'lumotlar ularning kundalik hayotlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar, shaxslararo o'zaro muloqotga asoslanishi lozim. Ya'ni tarbiyalanuvchilarning ota-onalar, oila a'zolari, ular mansub bo'lgan mikromuhitdagi subyektlar va tarbiyachilar bilan munosabatlari bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar misolida ochib beriladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar e'tiborini ular tomonidan tashkil etilayotgan xatti-harakatlarining salbiy yoki ijobiy mazmunga egaligini ochib berish (nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu, qaysi harakatlar noto'g'riligini ko'rsatish)ga tortish asosida ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini ochib beradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarni ijtimoiy-huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda alohida o'rin tutadi. Muassasada pedagogik-psixologik, shuningdek, umumiy ijtimoiy bilimlarni maxsus o'zlashtirgan mutaxassislar – o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini to'g'ri anglash, ularning ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy ahamiyatini tushunish, shuningdek, mazkur me'yorlarga kundalik faoliyatda rioya etish ko'nikmalarining izchil o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilari ijtimoiy va huquqiy me'yorlar, ularning mazmuni to'g'risidagi dastlabki eng oddiy tushunchalarni oila hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida



o'zlashtiradilar. Biroq boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilar hayotida o'ziga xos davr sanaladi. Bola o'zining jismoniy va ruhiy kamolotiga ko'ra ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi. Asosiy hayot tarzi sifatida o'yin faoliyati o'rnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qish faoliyati o'quvchilarning ruhiy jihatdan yanada takomillashishlariga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Bilim olish va atrof-muhitni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Mazkur hodisalarning barchasi o'quvchilarga ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini yetarli darajada anglashlariga yordam beradi.

Bilishga nisbatan ham hissiy yondashish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ularni ijtimoiy va huquqiy me'yorlar bilan tanishtirishda berilayotgan ma'lumotlarni qiziqarli tarzda bayon etish, imkon qadar hayotiy misollar yordamida obrazli talqin qilish ijobiy natijalarga qo'lga kirishga yordam beradi. His-tuyg'ularini ifodalashga qo'zg'aluvchanlik xosligi, shu bilan birga tengdoshlariga taqlid qilishning kuchliligi bois ijtimoiy hamda huquqiy me'yorlarga amal qilish yoki amal qilmaslik holatlarini ular xatti-harakatlari, xulq-atvori, odatlariga misolida yoritish orqali tasavvurlarining yetarli bo'lishi erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashlarida ham obrazlilik ustun bo'lganligi sababli ular o'qituvchi tomonidan berilayotgan tushunchalarning ma'nosidan ko'ra obrazi (shakli yoki tasviri)ga e'tiborni qaratadilar. Bu esa o'z-o'zidan ijtimoiy-huquqiy me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rgazmali vositalar yordamida yetkazish berish zarurligini anglatadi. O'qituvchi nutqining obrazlilik, hissiyotga boyligi va ma'lumotlarning qiziqarli ekanligi o'quvchilarning bilish faoliyatini faol tashkil etishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga hurmat hissini tarbiyalash o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muhim tarkibiy qismidir. O'quv ishlari tarkibida ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning o'rganilishi majburiylik kasb etadi. Bu majburiylik 1-4-sinflarda o'quv fani sifatida "Tarbiya" darslarini o'qitish yo'lga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish", "Tarbiya" va "Atrofimizdagi olam" kabi o'quv fanlari negizida ham o'quvchilar ijtimoiy-huquqiy me'yorlar, qisman esa huquqiy me'yorlar mohiyati bilan tanishib boradilar.

Ta'lim muassasasida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning muhim tarkibiy yo'nalishi bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar "xilma-xil faoliyat turlari majmuidan iborat bo'ladi va bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda keng imkoniyatlarga ega". Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ijtimoiy dolzarflik kasb etayotgan, pedagogik ahamiyatli masalalar, o'quvchilarning qiziqishlari, ta'lim pedagogik jamoasi oldida turgan vazifalar negizida ishlab chiqilgan reja asosida tashkil etiladi. Ana shu jihatga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ijtimoiy va huquqiy me'yorlarga doir bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida targ'ib etuvchi tadbirlarni kiritish imkoniyati mavjud.

Falsafiy, sotsiologik va huquqiy manbalarda qayd etilishicha, "odamlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy xulq-atvor qoidalari" bo'lgan ijtimoiy normalar "inson – inson" munosabatlarini tartibga soladi"<sup>1</sup>. Ayrim manbalarda esa ijtimoiy me'yorlari "xulq-atvor qoidalari" bo'lish bilan birga "faoliyat standartlari"<sup>2</sup>ham ekanligiga urg'u beriladi.

Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilari oilada, ta'lim muassasasida hamda o'zlari mansub bo'lgan mikro guruhlarda ota-onalar, oilaning barcha a'zolari, sinfdoshlari va tengdoshlari bilan tashkil etadigan munosabatlarda muayyan qoidalarga amal qilishlari lozim. O'quvchilarning ijtimoiy subyektlar bilan munosabatlarda aynan qanday xulq-atvor qoidalarga amal qilishlari zarurligini anglash uchun ijtimoiy me'yorlarning turlaridan xabardor bo'lish talab qilinadi.

O'rganilgan manbalarda o'quv jarayonlari davomida darsliklar asosida o'quvchilarda shakllantiriladigan ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- 1) axloqiy kompetensiyalar;
- 2) o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalari;
- 3) shaxslararo munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalari;
- 4) axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari;

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan ma'lum funksiyalarni bajarish (masalan, ovqatlanish, jamoa transportidan foydalanish, ko'ngilli dam olishni tashkil etishga xizmat qiladigan madaniy muassasalar (jumladan, muzeylar, kinoteatr, konsert zallari va sirk kabilarga) tashrif buyurish davri)da o'zini tuta olish, boshqarish va xatti-harakatlarini baholashga o'rgatadi.

<sup>1</sup>Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriyev X. Davlat va huquq asoslari / Darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2002. – 31-bet.

<sup>2</sup><http://www.glossary.ru/cgi-bin/gl>.





Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy diniy e'tiqod ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Hadislar, ularning ma'naviy-axloqiy mohiyatini anglash orqali o'quvchilar atrof-muhit va tabiatga ijobiy munosabatda bo'lish, tabiiy-moddiy ne'matlarni asrash, ularning mavjudligi uchun minnatdor bo'lish, ijtimoiy xulq-atvor va xatti-harakatlarni savob va gunoh mezonlari asosida baholash ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalar jamoasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar bilan tanishishlari ularda jamoaviylik, o'zaro yordam, jamoadoshlar tomonidan bir-birini qo'llab-quvvatlash, muayyan ijtimoiy faoliyat (masalan, o'yin, o'qish va mehnat)ni birgalikda tashkil etish malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017-yildagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli Qarori.
2. Aliqulova H.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy adolat tushunchalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped.fanl.nomz... diss. – Toshkent: 2008. – 130 b.
3. Богданова О.С. Культура поведения // Российская педагогическая энциклопедия. Т. 1. – Москва: Эксмо, 1993. – 608 с.
4. Большая психологическая энциклопедия / Авторский коллектив: А.Б.Альмуханова и др. – Москва: Эксмо, 2007. – С. 197-396.
5. Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi / Mualliflar: Q.A.Abdullayeva, R.G'.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbayeva, M.Zaynitdinova // Boshlang'ichta'lim j. – Toshkent: 1998. 6-son. – 12-18-6.





|    |  |     |
|----|--|-----|
|    | проявление этнопедagogических взглядов в духовном наследии Абу Абдуллы Рудаки<br>Manifestation of ethnopedagogical views in the spiritual heritage of Abu Abdullah Rudaki  |     |
| 20 | <i>Назаров Акмал Мардонович</i><br>Психологические условия формирования психоэмоциональной устойчивости у студентов вуза<br>OTM талабаларида психо-эмоционал барқарорликни шакллантиришнинг психологик шарт-шароитлари<br>Psychological conditions for the formation of psycho-emotional stability in university students    | 102 |
|    | <i>Эрназарова Раъно Юлдашевна</i><br>Талабалар ўқув фаолиятига психологик стресснинг таъсири<br>Влияние психологического стресса на учебную деятельность студентов<br>Impact of psychological stress for students' learning activities   | 106 |
|    | <i>Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna</i><br>Maktabgacha yosh davridagi bolalar aqliy rivojlanishida psixoterapevtik o'yinlarning ahamiyati<br>Значение психотерапевтических игр в умственном развитии дошкольного возраста<br>The significance of psychotherapeutic games in mental development of preschool age               | 109 |
| 23 | <i>Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich</i><br>Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining o'quv jarayoni davomidagi psixologik holatlari<br>Психологические состояния учащихся общеобразовательных школ в процессе обучения<br>Psychological states of students of general educational schools in the process of learning | 114 |
|    | <i>To'raeva Oygul Siroj qizi</i><br>Oilada bolalarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirishning psixologik xususiyatlari<br>Психологические особенности направления детей к предпринимательской деятельности в семье<br>Psychological characteristics of directing children to entrepreneurial activities in the family       | 118 |
|    | <i>Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna</i><br>Shaxslararo nizolarni samarali bartaraf etishning psixologik muammolari<br>Психологические проблемы эффективного разрешения межличностных конфликтов<br>Psychological problems of effective resolution of interpersonal conflicts  | 122 |
| 26 | <i>Saidova Feruza Nizomjanovna</i><br>Shaxs psixologik munosabatlarining mohiyati va o'ziga xosligi<br>Сущность и характеристика личностных психологических отношений<br>Essence and characteristics of personal psychological relations   | 126 |
|    | <i>Арибжанова Умида Абдурашитовна</i><br>Проблема вовлечённости студентов в образовательный процесс вуза<br>Университет таълим жараёнида талабаларнинг иштирок этиш муаммоси<br>The problem of student engagement in the educational process of the university   | 132 |
| 28 | <i>Ахмадов Назир Рахматович</i><br>Психологические механизмы социальной дезадаптации подростков<br>Ўсмирларнинг ижтимоий дезадаптациясини психологик механизмлари<br>Psychological mechanisms of social disadaptation of adolescents   | 136 |
|    | <i>Рустамов Шавкат Шухратович</i><br>Современные средства оценки уровня профессиональной компетентности  | 141 |





|                      |  |            |
|----------------------|--|------------|
|                      | <b>ПСИХОЛОГОВ</b>  |            |
|                      | Психологларнинг касбий компетентлик даражасини баҳолаш учун замонавий воситалар                                      |            |
|                      | Modern tools for assessing the level of professional competence of psychologists                                     |            |
| 30                   | <i>Hakimova Nargiza Suphanovna</i>   | <b>146</b> |
|                      | Kichik yoshdagi o'quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati |            |
|                      | Социально-психологическое значение формирования социально-правовых компетенций у учеников младших классов            |            |
|                      | Socio-psychological significance of formation of socio-legal competences in junior grade pupils                      |            |
| <b>УСТОЗНИ ЭСЛАБ</b> |  |            |
| 31                   | <i>Турсунов Л.С.</i>   | <b>150</b> |
|                      | Устоз Эргаш Ғозиевични шахсга оид назарияларининг ўзига хос қирралари  |            |
|                      | Своеобразные грани личности наставника Эргаша Газиевича  |            |
|                      | Particular facets of the personality of mentor Ergash Gazievich  |            |
|                      | <b>Памяти Леонида Фёдоровича Чупрова</b>   | <b>155</b> |



*Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring*  
**PSIXOLOGIYA.BUXDU.UZ**

**Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab olishingiz mumkin**



|  |  |  |
|--|--|--|
| <p><b>PSIXOLOGIYA</b><br/>         ilmiy jurnal<br/>         3-son (51)<br/>         Buxoro – 2022. 164 b.</p> <p><b>PSIXOLOGIYA</b><br/>         научный журнал.<br/>         Выпуск 3. (51)<br/>         Бухара – 2022. – 164 с.</p> | <p>Jurnal O`zbekiston psixologlarining BuxDU muassisligidagi nashri hisoblanadi.</p> <p><b>Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.</b></p> <p>OBUNA INDEKSI 3062</p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.<br/>         Bosishga ruxsat etildi</p> <p>Qog`oz bichimi 60x84, 1/8<br/>         Tezkor bosma usulda bosildi.<br/>         Shatrlı bosma tabog`i - 28 Buyurtma №123. Adadi – 50<br/>         Bahosi kelishilgan narxda.<br/>         “Sharq Buxoro” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.<br/>         Bosmaxona manzili:<br/>         Buxoro sh. M. Iqbol, 11-uy.</p> |
|--|--|--|

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK  
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi  
201/3-sonli qarori bilan psixologiya  
fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari  
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy  
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan  
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291



9 772181 529113

11